



**Министерство Здравоохранения Республики Узбекистан
Ташкентская медицинская академия
Кафедра коммунальной гигиены и гигиены труда
НАО «Медицинский Университет Астана»
Чувашский государственный педагогический университет
им. И.Я. Яковлева**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ
«АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЭКОЛОГИИ ПОЧВЫ В ВЕК
УРБАНИЗАЦИИ И ИНДУСТРИАЛИЗАЦИИ»**

Сборник научных работ



ТАШКЕНТ - 2024

Международная научно-практическая конференция «Актуальные проблемы экологии почвы в век урбанизации и индустриализации»

**Министерство Здравоохранения Республики Узбекистан
Ташкентская медицинская академия
Кафедра коммунальной гигиены и гигиены труда
НАО «Медицинский Университет Астана»
Чувашский государственный педагогический университет
им. И.Я. Яковлева**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ
«АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЭКОЛОГИИ ПОЧВЫ В ВЕК
УРБАНИЗАЦИИ И ИНДУСТРИАЛИЗАЦИИ»**

*Сборник материалов международной научно-практической
конференции, состоявшейся 24 мая 2024 года в Ташкенте*



ТАШКЕНТ - 2024

УДК 574(063)

TUPROQ MUHITNING AZOTOBAKTERIYALAR BILAN

IFLOSLANISH HOLATI

O‘zbekiston Respublikasi

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Sherqo‘ziyeva G.F., Salomova F.I., Sharipova S.A., Yuldasheva F.U.

Ma’lumki, ekin yerlar respublika bo‘yicha jami 4064,7 ming gektarni, shu jumladan, sug‘oriladigan ekin yerlarning umumiy yer maydoni 4307,3 ming gektaryoki qishloq xo‘jalik yer turlarining 13,1 % ini hamda lalmi ekin yerlarining umumiy yer maydoni 757,4 ming gektarni yoki qishloq xo‘jalik yer turlarining 3,0 % ini tashkil qilib, qishloq xo‘jaligidan olinadigan hamma mahsulotlarning 30-35% dan ko‘prog‘ini yetkazib beradi (O‘zbekiston Respublikasi Yer resusrlarining holati to‘g‘risida Miliy hisobot, 2012). Qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishda aynan tuproq muhitining xosildorligi, sanitariya xolati va sho‘rlanganlik darajasi ahamiyatga ega. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti hamda Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi vaqtda dunyoda 840 million dan ortiq kishi, ya’ni deyarli har 8 odamning biri to‘yib ovqatlanmayapti. Eng so‘nggi tadqiqotlar esa sayyora aholisining 30 foizidan ziyodi to‘yib ovqatlanmaslik oqibatida eng asosiy mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammosidan aziyat chekayotganligini, 52 mamlakatda ochlikning «jiddiy», «xavotirli» va «favqulodda jiddiy» darajalari qayd etilganini ko‘rsatilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda biz yangi bioo‘g‘itning gigiyena va toksikologiyasini o‘rgandik. Bioo‘g‘it o‘simliklarning o‘shini tezlashtirish, hosilni ko‘paytirish, uning sifatini yaxshilash, fitopatogen mikroflorani kamaytirish uchun sabzavot, texnik ekinlar, kartoshka, yosh mevali daraxt ko‘chatlari, o‘rmon

Международная научно-практическая конференция «Актуальные проблемы экологии почвы в век урбанизации и индустриализации»

ekinlarining urug‘lari va ko‘chatlarini ekishdan oldin qayta ishlash uchun mo‘ljallangan. Biologik o‘g‘itning toksikligi va biologik ta’sirining mohiyatini o‘rganish "Atrof-muhitda bioinsektitsidlarining ruxsat etilgan konsentratsiyasini (REK) asoslash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish uchun” uslubiy ko‘rsatma va "Yangi pestitsidlarni har tomonlama gigiyenik baholash bo‘yicha ko‘rsatma" talablariga muvofiq amalga oshirildi. Ketma-ketlikda tayyorlangan 10 marotabali suyultirilgan eritmadan 0,1 ml olinib oziqa muhitiga ekildi, $29 \pm 10^{\circ}\text{S}$ haroratli termostatga 3-4 kunga qo‘yildi. O‘sib chiqqan koloniyalar vizual tekshiriladi, bunda azotsiz agar muhitida azotobakteriyalar yirik, dumoloq, yonib turuvchi, shilliq, tiniq bo‘lmagan, pigmentsiz, chekka qismlari tekis bo‘ladi. “Yer malxami “ biologik o‘g‘iti quruq shaklda 50, 100, 200, 400, 1000 g, torf shaklda 200, 400, 800, 1000 g, suyuq shaklda 5 dm³, 50 dm³ miqdorda qadoqlanadi va qadoq idishiga “namlikdan qo‘rqadi” va “qizdirilishdan qo‘rqadi” belgilari ostida ishlab chiqariladi. Preparat bilan ishlov berilgan ekin maydonlari tuprog‘i 10 kun davomida 10,7 dan 0,3 g/kg gacha, ekin maydonlarining chetki qismi tuprog‘ida esa , 5 kun davomida 0,9 dan 0,11 mg/kg praparat saqlanganligi aniqlandi.

Yuqorida olingan natijalarga asoslanib quyidagilarni aytish mumkin “Yer malxami” bioo‘g‘itini qishloq xo‘jaligida qo‘llanilganda tuproq muhitni kam darajada qisqa vaqt davomida ifloslantiradi.

